
DAVRA SUHBATI O'TKAZILDI



Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudining raisi A.Akbarov ishtirokida Qo'shtepa tumani Davlat Soliq inspeksiyasi binosida mahalla faollari, tadbirkorlar va Davlat Soliq inspeksiyasi xodimlari bilan davra suhbati o'tkazildi.

Davra suhbati davomida Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudining raisi A.Akbarov tomonidan 2022 yil 25 yanvar kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlar bilan ishlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-747-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan 2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturni 2022-2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasiga asosan xotin-qizlar orasida jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning oldini olish, xususan xotin-qizlar orasida qonuniylik va huquq-targ'ibotni ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning zamonaviy usul va shakillarini tatbiq etish mazmun-mohiyati, O'zbekiston Respublikasida chaqaloq va bolalar savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish hamda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan davlat dasturining 34-bandi ijrosi yuzasidan tadbir ishtirokchilariga batafsil tushuntirishlar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-05-19 20:13:16